

# O`Rta Tolali G`O`Za Navlarining Paxta Tolasini Saqlash Usullari Va Dastlabki Ishlashni Ilmiy Asoslarini O`Rganish

Ibragimov Odiljon Olimjonovich  
Ilmiy rahbari, q.x.f.d., professor  
FarPI QXMT kafedrası professori

Ortiqov Izzatillo Isroiljon o'g'li  
FarPI Q.X.M.S va D.I.T yo'nalishi M20-21GURUH Magistrant

## Abstract:

Ushbu maqolada o`rta tolali g`o`za navlarining paxta tolasini saqlash usullari va dastlabki ishlash texnologiyasi, go`o`zaning madaniylashgan turlari, paxta tolasining sifati bo'yicha klassifikatsiyalash sistemasi haqida so'z yuritiladi

## Keywords:

Paxta tozalash korxonalari, morfologik belgilar, dastlabki ishlash jarayoni, gossipium barbadenze, klassifikatsiyalash

## KIRISH

O'zbekiston to'qimachilik va yengil sanoati mahsulotlarining asosiy xom-ashyosi bo'lgan paxta tolasining ishlab chiqaruvchisidir. Paxta tozalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarining sifat ko'rsatkichlari standart talablari darajasida bo'lishi, dunyo andozalariga mos kelishi jahonda haridorgir mahsulot bo'lishining asosiy omili hisoblanadi. Sifatli mahsulot ishlab chiqarish uchun paxta tozalash sanoati tarkibidagi paxta tozalash korxonalarida quyidagi ishlar bajariladi: paxtani qabul qilib, saqlab, uni dastlabki ishlash jarayoniga beriladi va undan tayyor mahsulotlar - tola, chigit, momiq ishlab chiqariladi.

Paxtani dastlabki ishlash texnologiyasi quyidagi asosiy jarayonlarni o'z ichiga oladi: - chigitli paxtani quritish; -chigitli paxtani mayda va yirik iflosliklardan tozalash; -paxtani jinlash; -chigitni linterlash; -tola, momiq va tolali chiqindilarni tozalash va presslash toy shakliga keltirish; -urug'lik chigit tayyorlash. Ushbu jarayonlarni bajarish uchun paxta tozalash korxonalari va paxta tayyorlash punktlari texnologik mashina va uskunalar, gidroress qurilmasi, transport, mexanizatsiyalash moslamalari, arra ta'mirlash va energetika xo'jaligi bilan jixozlanadi.

## ASOSIY QISM

Paxta donli o'simliklar bilan bir qatorda sayyoramizdagi qadimgi madaniy ekinlardan biri hisoblanadi. Hind vodiysida eramizdan 3 ming yil avval paxta ipidan foydalanganlar. Paxta xo'jalik ehtiyojlari uchun Markaziy Osiyoda eramizdan 5 asr ilgari ekila boshlangan.

G'o'za – Gossipium avlodi Malva oilasidagi o'simlik bo'lib, bir yillik yoki ko'p yillik bo'lishi mumkin bo'lgan katta bo'lmagan daraxt shaklidagi o'simlikdir. Shoxlarining balandligi 0,7-1,5 m bo'lgan past bo'lyli bir yillik o'simlik g'o'zani madaniylashgan turi hisoblanadi. Xo'jalikda foydaliligi jihatdan g'o'zaning xindi-xitoy (Gossipium

arboreum), Afrika-Osiyoning (*Gossipium xerbatseum*) Meksikaning (*Gossipium xirzutum*) va Peruning (*Gossipium barbadense*) turlari ma'lum. Markaziy Osiyo mamlakatlarida g'o'zaning oxirgi ikki turi mavjud, shu jumladan *Gossipium barbadense* faqat Turkmaniston, Tojikiston va O'zbekistonda ekiladi.

G'o'zaning madaniylashgan turlari bir qancha seleksion navlardan iborat. Seleksion nav – bu bir ko'rinishdagi avlodiy bir turdagi morfologik va xo'jalik belgilar hamda xususiyatlarga ega bo'lgan madaniylashgan turdagi klassifikatsiya birligiga ega bo'lgan o'simliklar majmuasidir. G'o'zaning morfologik belgilari – o'simlik tuzilishining farqlanuvchi xususiyatlari (tup tuzilishi, shoxlari, barglari, guli, ko'sagi, chigiti va h.k.).

Xo'jalik belgilariga uning mahsulotini inson ehtiyojlarini qondirish nuqtai nazaridan, aniqrog'i olinadigan hosilning miqdori va sifatini belgilaydigan ko'rsatkichlari kiradi. G'o'za uchun asosiy ko'rsatkich undan olinadigan tolaning miqdori va sifati hisoblanadi. Tolaning sifatiga qarab g'o'za uzun va o'rta tolali navlarga bo'linadi. Uzun tolali g'o'za navi tolasining uzunligi 36-42 mm bo'ladi. Uzun tolali navlar, asosan, *Gossipium barbadense* turiga kiradi. O'rta tolali g'o'za uzunligi 25-35 mm ga teng va nisbatan dag'al tolagaga ega bo'lib, asosan *Gossipium xirzutum* turiga yoki tur oralig'idagi gibridlarga kiradi. G'o'za o'zining hayotiy xususiyatlarini bir necha yil davomida saqlay oladigan chigitlar tufayli ko'payadi.

Chigit unib chiqishi uchun, tuproqda namlik va atrof muhitda harorat bo'yicha zaruriy sharoitlar kerak. G'o'zaning me'yoriy o'sib chiqishi chigitning namligi 60 foiz va undan yuqori bo'lganda boshlanadi. Shu sababli o'sib chiqishini tezlashtirish uchun tukli chigit ekishdan avval namlanadi. Chigit harorat tuproqda 14-16 °S va havoda 15-20 °S bo'lganda 5-7 kunda unib chiqa boshlaydi.

Chigit o'simtasi ildiz olgandan keyin o'sishning vegetativ fazasi boshlanadi, birinchi chin barg g'o'za unib chiqqandan yetti – o'n kundan keyin paydo bo'ladi, yana 4-5 kundan keyin ikkinchi barg hosil bo'ladi va shu tarzda g'o'za poyasi o'sa boshlaydi. 5-7 va undan ko'p barglar shakllangandan keyin hosil shoxlari (simpodial) rivojlana boshlaydi.

G'o'za unib chiqqandan taxminan bir oydan keyin birinchi shona shakllanadi va yana 25-30 kundan so'ng gul ochiladi. Shonalar vertikal bo'yicha (asosiy poya bo'yicha pastdan yuqoriga) har uch kunda va gorizontal bo'yicha (hosil poyalarida) yetti kunda shakllanadi va gullaydi. Ko'sak deb ataladigan hosil o'rta tolali navlarda 4-5 qovachog'lar bilan chegaralangan pallachalardan iborat bo'ladi.

Uzun tolali navlarda ko'sak 3-4 pallachaga ega. Pallachalar ichida 5-9 va undan ortiq tolali chigit bo'lib, ularning har qaysisi ma'lum bir uzunlikka (25 dan 45 mm gacha) ega bo'lgan tola va (uzunligi 20 mm dan oz bo'lgan) kalta momiq bilan qoplangan.

G'o'za faqat paxta xom ashyosi olish uchungina ekiladi. G'o'za ekiladigan hududlarning yalpi gazlashtirilishi tufayli qishloq joylarda g'o'zapoyaning yoqilg'i sifatida ishlatilishi ilgari ahamiyatini yo'qotmoqda. Undan qurilish materiallari olish uchun g'o'za poyasini qayta ishlash qisman yo'lga qo'yilmoqda.

Paxta xom ashyosidan ishlab chiqariladigan asosiy mahsulot paxta tolasi hisoblanadi. SHuning uchun dunyoda paxta tolasining sifati bo'yicha klassifikatsiyalanadi.

---

O'zbekistonda paxtani tolasining sifati bo'yicha klassifikatsiyalash sistemasi qabul qilingan.

Hozirgi vaqtda tolani klassifikatsiyalash usuli tiplarga (vertikal klassifikatsiyalash) va sanoat navlariga (gorizontal klassifikatsiyalash) bo'lishni nazarda tutadi. Shunga ko'ra paxta tolasining sifati bo'yicha ayrim tip va sanoat navlariga ajratiladi. Amaldagi me'yorlarga ko'ra tola taram massaviy uzunligi, nisbiy uzilish kuchi va chiziqli zichligi bo'yicha 9 ta tipga bo'linadi. Tola sifat ko'rsatkichlarining amaldagi me'yorlari tiplar bo'yicha 1.3-jadvalda keltirilgan. O'z DSt 604:2001. «Paxta tolasini. Texnikaviy shartlar». standartiga ko'ra paxta tolasining tipi shtapel massaviy uzunligi yoki chiziqli zichligining eng past ko'rsatkichi bo'yicha aniqlanadi. Har qaysi tipdagi paxta tolasini tashqi ko'rinishi, rangi va pishib yetilganlik koeffitsientiga qarab beshta sanoat naviga (I, II, III, IV, V) bo'linadi.

Bunda pishib yetilganlik koeffitsienti uzun tolali seleksion navlar uchun sanoat naviga qarab 2,0 dan 1,2 gacha, o'rta tolali navlar uchun bu ko'rsatkich 1,8 dan 1,2 ga teng. Tolaning navi rangi va pishib yetilganlik koeffitsientining eng past ko'rsatkichi bo'yicha aniqlanadi. Bundan tashqari paxta tolasini iflosligi va nuqsonlarining miqdori bo'yicha sinflarga bo'linadi. I va II navlar – oliy, yaxshi, o'rta, oddiy, iflos; III va IV navlar – yaxshi, o'rta, oddiy, iflos va V nav – o'rta, oddiy, iflos sinflardan iborat.

## **XULOSA**

Dunyo bozorida trikotaj uchun ishlatiladigan asosiy xom ashyo 4-nchi tipdagi paxta tolasini bo'lib, unga talab juda kattaligicha qolmoqda. So'nggi yillarda 4-tipdagi paxta tolasini tayyorlash hajmi sezilarli darajada oshdi va umumiy hajmda 28 foizga (keng tarqalgan navlar Buxoro 6, S-6524, Xorazm 127) yetdi. Kelajakda 4-tipdagi paxta tolasini ishlab chiqarish 35 foizgacha ko'payishi kutilmoqda. Shuningdek dunyo bozorida sifatli V tipdagi paxta tolasini ham yuqori talabga ega va u, tayyorlangan paxtaning hajmida 70 foizni tashkil etadi.

## **ADABIYOTLAR**

1. Аббазов И. З. и др. ТЕХНОЛОГИК ЖАРАЁНЛАРДАН ЧИҚАЁТГАН ЧАНГ ЗАРРАЧАЛАРИНИНГ ФРАКЦИОН ТАРКИБИ //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 3. – С. 129-135
2. Jumaniyazov Q. J. et al. YIGIRISH JARAYONI O'TIMLARI BO'YICHA ARALASHMA TARKIBIGA ASOSAN CHIQINDI VA IP MIQDORINING O'ZGARISHI //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 1.
3. Jumaniyazov Q. J. et al. YIGIRISH KORXONASIDA TOLANING MEKANIK SHIKASTLANISHINING ARALASHMA TARKIBI BO'YICHA O'ZGARISHI //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 1.
4. Мусаев Н. и др. КОМПЛЕКСНАЯ ОЦЕНКА КАЧЕСТВА НОВЫХ СТРУКТУР РИСУНЧАТОГО ТРИКОТАЖА //Advances in Science and Technology. – 2019. – С. 57-58.